

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi:

Fuqarolik shartnoma. “Autsorsing xizmati ko‘rsatish haqida”

2. Loyihaning mazmuni:

“Qarshi shahar davlat maktabgacha ta‘lim bo‘limi (buyurtmachi) bilan “Vaqt zavqi” fermer xo‘jaligi (autsorser) bo‘lim tasarrufidagi 28-sonli davlat maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga 52 129 500 so‘mlik autsorsing usulida sog‘lom ovqatlantirishni tashkil etish to‘g‘risida”

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma‘lumot:

Qarshi shahar maktabgacha ta‘lim bo‘limi mudiri B.Muminov tomonidan 2022-yil 17-yanvar kuni taqdim qilingan.

Loyiha amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 30.06.2021-yildagi “Davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida sog‘lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 407-sonli qarori va O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari (B.Musayev)ning 30.09.2021-yildagi 07/1-2472-sonli xati (O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta‘lim vazirligining 28.09.2021 yildagi 01-02/6-261-sonli murojaatiga rozilik berish, jumladan tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limlari va autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga qo‘shimcha kelishuv imzolash; Moliya vazirligi G‘aznachiligi tuman (shahar) maktabgacha ta‘lim bo‘limlari va autsorsing xizmatlari ko‘rsatuvchi korxonalar o‘rtasida tuzilgan shartnomalarga qo‘shimcha kelishuvlarni o‘rnatilgan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlash, davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tajriba sinov tariqasida ishlab kelgan tadbirkorlar bilan tuzilgan shartnomalarni istisno tariqasida 2022-yil 1-yanvarga qadar uzaytirish hamda uzaytirilgan shartnomalarni ro‘yxatdan o‘tkazish va to‘lovlarni amalga oshirishga rozilik berish)ga asosan ishlab chiqilgan.

Shuningdek, Qashqadaryo viloyati Adliya boshqarmasi boshlig‘i nomiga Qarshi shahar maktabgacha ta‘lim bo‘limining 2022-yil 19-yanvarda №29-sonli va “Nishon ko‘zgu” F/X ligining shu kunda №5-sonli yozilgan xatlarida Qarshi shahar maktabgacha ta‘lim bo‘limining tasarrufidagi davlat maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida autsorsing usulida ovqatlantirish yuzasidan Qarshi shahar maktabgacha ta‘lim bo‘limi hamda “Nishon ko‘zgu” F/X o‘rtasida 2022-yil 8-yanvar kundan 4-conli 1.384.600.000 (bir milliard uch yuz sakson to‘rt million olti yuz ming) so‘mlik shartnoma QR kodi orqali imzolanmaganligi hamda yuridik kuchga ega emasligi, huddi shuningdek 2022-yil 8-yanvarda tuzilgan 2-sonli shartnoma va 2022-yil 8-yanvarda tuzilgan 5-sonli shartnomalar yuridik kuchga ega emasligi hamda “Nishon ko‘zgu” F/X o‘rtasida moliyaviy taraflama to‘lovlar amalga oshirilmaganligi, smeta xarajatlaridagi o‘zgarishlar, O‘zAsbo byudjet

tashkilotlarining avtomatlashtirilgan tizimi dasturida o'zgarish kirganligi, Davlat xaridlari yangi axborot portalida ish boshlaganligi sababli yuqorida ko'rsatilgan yuridik majburiyatga ega shartnomalar bekor qilinganligi ko'rsatilgan.

Qarshi shahar yuridik xizmat
ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti
2022-yil 20-yanvar

N.S.Qilichev

